https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muallif: **Xalimjonova Moxlaroy Xasanboy qizi**

Namangan Davlat Universiteti, Yuridik fakulteti, 4-bosqich talabasi,

Email:mohlaroyxalimjonova2@gmail.com

Telefon: +998338304757

Ilmiy rahbar: **Oltinboyev Doniyor**

Namangan Davlat Universiteti, Yuridik fakulteti,

Jinoyat huquqi va protsessi kafedrasi o‘qituvchisi

Telefon: +998934946677

GENETIK MA’LUMOTLAR XAVFSIZLIGI ORQALI AHOLI GENOFONDINI HIMOYA QILISH: XALQARO STANDARTLAR, XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON HUQUQIY TIZIMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada genetik ma’lumotlarning huquqiy maqomi, ularning aholi genofondini asrashdagi ahamiyati, xalqaro huquqiy normalar va rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligida genetik ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: genofond, genetik ma’lumotlar, konfidensiallik, bioetika, GDPR, genomik ro‘yxatga olish, milliy xavfsizlik.

Аннотация: В статье анализируются правовой статус генетических данных, их значение в сохранении генофонда населения, международно-правовые нормы, а также опыт развитых государств. Кроме того, выдвигаются предложения по совершенствованию механизмов защиты генетических данных в законодательстве Республики Узбекистан.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ключевые слова: генофонд, генетические данные, конфиденциальность, биоэтика, GDPR, геномная регистрация, национальная безопасность.

Annotation: This article analyzes the legal status of genetic data, their significance in preserving the population gene pool, international legal norms, and the experience of developed countries. It also proposes recommendations for improving mechanisms for the protection of genetic data within the legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: gene pool, genetic data, confidentiality, bioethics, GDPR, genomic registration, national security.

Kirish

XXI asrda biotexnologiya va tibbiy genetikaning rivojlanishi insonning genetik ma’lumotlarini eng qimmatli resursga aylantirdi. Genetik ma’lumotlar nafaqat shaxsning sog‘lig‘i, balki butun bir millatning genofondi haqidagi maxfiy axborotni o‘zida jamlaydi. Ushbu ma’lumotlarning noqonuniy aylanishi yoki tashqi kuchlar tomonidan egallanishi "genetik diskriminatsiya" va milliy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin. Shu sababli, aholi genofondini huquqiy himoya qilish strategik vazifadir.

Genofond — bu muayyan davlat yoki jamiyat doirasida shakllangan, avloddan-avlodga o‘tuvchi genetik belgilar, biologik xilma-xillik va irsiy salomatlik holatini ifodalovchi genetik resurslar majmui bo‘lib, u inson huquqlari, bioxavfsizlik, demografik barqarorlik va milliy xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy himoya obyekti hisoblanadi.[1]

Genetik ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro miqyosda bir qator fundamental hujjatlar qabul qilingan: UNESCO ning Inson genomi va inson

[1] https://www.unesco.org/en/ethics-science-and-technology/human-genetics

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi (1997): Unda inson genomi "insoniyat merosining ramziy asosi" deb e’tirof etiladi va har qanday genetik tadqiqotlar inson qadr-qimmati va huquqlariga muvofiq bo‘lishi shartligi belgilanadi. Yevropa Ittifoqining GDPR (Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti): Ushbu hujjatda genetik ma’lumotlar "maxsus toifadagi ma’lumotlar" sifatida tasniflanib, ularni qayta ishlash uchun juda qat’iy talablar qo‘yilgan.

O‘zbekistonda aholi genofondini muhofaza qilish masalasi so‘nggi yillarda qonunchilik darajasiga ko‘tarildi: 1. "Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida"gi Qonun: Genetik ma’lumotlar biometrik va maxsus shaxsga doir ma’lumotlar sirasiga kiradi. 2. "Davlat genomik ro‘yxatga olish to‘g‘risida"gi Qonun (2020): Bu qonun asosan sud-ekspertiza va jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadlarini ko‘zlaydi.

Narkotik va psixotrop moddalar aholi genofondiga jiddiy xavf tugdiradi, ularning uzoq muddatli iste’moli DNK mutatsiyalari, gametalar sifati pasayishi va irsiy kasalliklar xavfini oshiradi, reproduktiv yoshdagi shaxslar orasida bu moddalar uchun genofondni himoya qilish masalasi nafaqat tibbiy balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan davlatning strategik vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim

Mazkur maqolaning maqsadi aholining genofondini himoya qilishning huquqiy asoslarini xalqaro standartlar nuqtai nazaridan tahlil qilish va ilg‘or xorijiy tajribani O‘zbekiston qonunchiligida qo`llash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot aholining genofondini himoya qilishning huquqiy asoslarini tahlil qilish va xalqaro tajribani O‘zbekiston qonunchiligida qo`llashga qaratilgan. Tadqiqotda UNESCOning “International Declaration on Human Genetic Data”, Germaniya va Yaponiya qonunchiligi hamda O‘zbekiston normativ hujjatlari batafsil o‘rganildi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Solishtirma tahlil yordamida xalqaro va milliy qonunchilikdagi farqlar, bo‘shliqlar va muvofiqlik masalalari aniqlanib, kontseptual tahlil orqali genofondni himoya qilish, genetik diskriminatsiya va shaxsiy genetik ma’lumot tushunchalari huquqiy, axloqiy va ijtimoiy kontekstda talqin qilindi.

O‘zbekiston qonunchiligidagi bo‘shliqlar asosida, xalqaro tajriba va ilmiy tahlil natijalariga muvofiq amaliy va huquqiy takliflar ishlab chiqildi. To‘plangan ma’lumotlar analiz va sintez yondashuv yordamida tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar tayyorlandi.

Tadqiqot natijalari

Mazkur tadqiqotda, aholining genofondini himoya qilish masalasi xalqaro huquq normalari hamda O‘zbekiston, Germaniya va Yaponiya huquqiy tizimlari asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi. Natijalar genetik ma’lumotlarni huquqiy muhofaza qilishga yondashuvlar darajasi davlatlar kesimida sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi.

Xalqaro huquqda genetik ma’lumotlarni muhofaza qilish UNESCO ning [16.10.2003] “Inson genetik ma’lumotlari to‘g‘risidagi xalqaro deklaratsiyasi” orqali tartibga solinadi. Unda genetik ma’lumotlarning xavfsizligi, maxfiyligi, aniqligi hamda biologik namunalar va genetik axborotdan foydalanishda shaxsning oldindan, erkin va ongli roziligini olish majburiyati belgilangan. Shuningdek, genetik ma’lumotlardan faqat dastlab belgilangan maqsadlar doirasida foydalanish tamoyili mustahkamlangan.[2]

Germaniya huquqiy tizimida genetik ma’lumotlar alohida sezgir shaxsiy ma’lumotlar toifasiga kiritilgan bo‘lib, ularni qayta ishlash maxsus huquqiy rejim asosida amalga oshiriladi[3]. Genetik testlar va genetik axborotdan foydalanish qat’iy normativ cheklovlar bilan tartibga solinganligi aniqlangan.

[2] https://www.unesco.org/en/ethics-science-technology/human-genetic-data

[3] https://www.gesetze-im-internet.de/gendg/

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yaponiya huquqiy tizimida genetik ma’lumotlarni muhofaza qilish Act on the Protection of Personal Information (APPI) orqali ta’minlanadi. Tadqiqot natijalari Yaponiya modelida genetik ma’lumotlar shaxsiy ma’lumotlar tarkibida ko‘rib chiqilishi va ularni qayta ishlashda rozilik, maqsadga muvofiqlik hamda xavfsizlik tamoyillariga amal qilinishini ko‘rsatdi.[4]

O‘zbekiston Respublikasida genofondni muhofaza qilishga doir normativ tartibga solish asosan sog‘liqni saqlash sohasiga oid hujjatlar va Prezident qarorlari bilan cheklangan. Tadqiqot davomida genetik ma’lumotlarning huquqiy maqomi va ulardan foydalanishga doir maxsus normativ mexanizmlar tizimli ravishda shakllanmaganligi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki narkotik moddalarning uzoq muddatli iste’moli embrional rivojlanish buzilishlari va tug‘ma patologiyalar xavfini oshiradi, reproduktiv yoshdagi aholi gametalar sifatining pasayishi va irsiy kasalliklar tarqalish ehtimolini kuchaytiradi.[5] O‘zbekiston qonunchiligida narkotik moddalarning genetik oqibatlariga alohida e’tibor berilmagan, hozirgi normativ-huquqiy mexanizmlar asosan jinoiy va tibbiy xavfni nazorat qiladi lekin genetik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilmagan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari Germaniya va Yaponiya huquqiy tizimlarida xalqaro standartlar institutsional darajada joriy etilganini, O‘zbekistonda esa ularni milliy qonunchilikka kompleks implementatsiya qilish zarurati mavjudligini ko‘rsatdi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholining genofondini himoya qilish nafaqat tibbiy va bioxavfsizlik masalasi, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy

[4] https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4241/en
[5]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

barqarorlikni ta’minlovchi strategik yo‘nalishdir. Tadqiqot davomida Germaniya va Yaponiya tajribasi hamda O‘zbekiston konteksti tahlil qilindi.

1. Germaniya tajribasi: Genetic Diagnostics Act (GenDG) [Qabul qilingan: 24 aprel 2009; kuchga kirgan: 1 fevral 2010] genetik testlar va ularning natijalarini to‘plash, saqlash va ishlatish tartibini belgilaydi. Qonun shaxsning oldindan yozma roziligini talab qiladi, ma’lumotlardan maqsadga muvofiq foydalanishni kafolatlaydi va genetik diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik mexanizmlarini belgilaydi.

Tahlil: Genetik axborot maxfiyligi va shaxsiy huquqlarni birlashtirish mumkin. Huquqiy tartib genetik diskriminatsiya xavfini minimal darajaga tushiradi. Genetik ma’lumotlardan faqat aniq belgilangan maqsadlar uchun foydalanish ijtimoiy ishonchni oshiradi.

2. Yaponiya tajribasi. Act on the Protection of Personal Information (APPI) [Act No 57 of 2003 May 30] shaxsiy ma’lumotlar doirasida genetik ma’lumotlarni himoyalaydi va ularni ishlatishda shaxsning oldindan ongli roziligini talab qiladi.

Tahlil: APPI genetik ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va maqsadga muvofiq ishlatishni ta’minlaydi. Maxsus genetik qonun mavjud emasligi nazorat samaradorligini cheklaydi. Genofondni yetarlicha himoya qilmaslik ijtimoiy ishonchni pasaytiradi va bioxavfsizlik xavfini oshiradi.

3. O‘zbekiston konteksti. O‘zbekiston Respublikasida irsiy kasalliklarni oldini olish va tibbiy-genetik monitoringni rivojlantirish bo‘yicha Prezidentning 25.12.2017 yildagi PQ-3440-sonli qarori qabul qilingan. Qaror tibbiy-genetik skrining va profilaktika choralari orqali aholining genofondini nazorat qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, genetik ma’lumotlar huquqiy himoyasi va genetik diskriminatsiyaga qarshi aniq normativ mexanizmlar yetarli darajada belgilangan emas.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Hozirda O‘zbekistonda xususiy klinikalar va DNK testlarida to‘planayotgan genetik ma’lumotlar uchun yagona xavfsizlik standarti va xorijiy serverlarga uzatishni nazorat qilish mexanizmi mavjud emas. Genetik ma’lumotlar alohida markazlashtirilgan davlat serverida saqlanmaydi, balki sog‘liqni saqlash va ilmiy muassasalarning axborot tizimlarida joylashtiriladi. “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga (02.07.2019) ko‘ra, biometrik va genetik ma’lumotlar O‘zbekiston hududida joylashgan serverlarda saqlanishi shart, nazorat esa Vazirlar Mahkamasi, Raqamli texnologiyalar va Sog‘liqni saqlash vazirliklari vakolatida. Maxsus mustaqil nazorat mexanizmining yo‘qligi huquqiy bo‘shliqni yuzaga keltiradi.

Narkotik moddalarning genofondga ta’siri genetik xavfsizlikni mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi. Bu vazifani samarali bajarish uchun narkotik xavfi milliy huquqiy siyosatga integratsiya qilinishi, reproduktiv yoshdagi aholi uchun tibbiy-genetik monitoring va skriningni kuchaytirish, genetik ma’lumotlar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etish va “Genetik xavfsizlik to‘g‘risida” alohida qonun qabul qilish tavsiya etiladi.

Natijada, genetik diskriminatsiya xavfi ortadi, jamiyat ishonchi pasayadi, bioxavfsizlik va demografik monitoring samarasi susayadi, genofondning zaiflashuvi esa kelajak avlodning salomatligi va mehnat salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Germaniya tajribasi GenDG orqali genetik ma’lumotlarning maxfiyligi va genetik diskriminatsiyaga qarshi kuchli mexanizmlarni ta’minlaydi.

Yaponiya APPI orqali shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilsa-da, maxsus genetik qonun yo‘qligi samaradorlikni cheklaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘zbekiston PQ-3440-son qarori bilan irsiy kasalliklarni oldini olishga qaratilgan choralarga ega, ammo genetik ma’lumotlarning huquqiy himoyasi yetarli emas, bu esa diskriminatsiya va bioxavfsizlik xavfini oshiradi.

Strategik tavsiyalar:

Genetik ma’lumotlar uchun maxsus huquqiy rejim yaratish, shaxsning ongli roziligi va genetik diskriminatsiyaga qarshi mexanizmlarni belgilash.

Monitoring va nazorat tizimini mustahkamlash, Germaniya tajribasidagi kabi mustaqil nazorat organi orqali genetik ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash.

Bioinformatik bazalarni rivojlantirish, tibbiy-genetik ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish.

Xorijiy tajribalardan kelib chiqib, Yaponiya va Germaniyaning samarali elementlarini O‘zbekiston qonunchiligiga integratsiya qilish.

Genetik diskriminatsiyaga qarshi aniq normativ mexanizm yaratish, ish beruvchilar, sug‘urta kompaniyalari va tibbiyot tizimida nazoratni kuchaytirish.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda, O‘zbekiston aholisining genofondini milliy strategik resurs sifatida himoya qilishi, bioxavfsizlikni ta’minlashi va kelajak avlodning salomatligini kafolatlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil 8-dekabr (2023-yilgi tahrir) https://lex.uz/uz/docs/-20596
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida” No. ZRU-547, 02.07.2019 https://lex.uz/acts/-4396419
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori No. 570, 05.10.2022 https://lex.uz/ru/docs/-6225462

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3440-son qarori, 25.12.2017. Irsiy kasalliklarni profilaktikasi va monitoring https://president.uz/oz/lists/view/1376
5. UNESCO. International Declaration on Human Genetic Data, 16 October 2003, Paris, France https://www.unesco.org/en/ethics-science-technology/human-genetic-data
6. Gesetze im Internet. Gesetz über genetische Untersuchungen bei Menschen (Genetic Diagnostics Act, GenDG). Qabul qilingan: 24 aprel 2009; kuchga kirgan: 1 fevral 2010 https://www.gesetze-im-internet.de/gendg/
7. Japanese Law Translation. Act on the Protection of Personal Information (APPI), Act No. 57 of 2003 (May 30, 2003) https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4241/en
8. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”, 19.08.1999 https://lex.uz/docs/18849
9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 22.09.1994 https://lex.uz/docs/107383